



USTOZ – SHOGIRD AN'ANASI ASOSIDA BADIY KULOLCHILIK IJODIY USTAXONASINI YARATISHNINR AHAMIYATI

Mamurov A.A.

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi.

Tayanch so'zlar: "Ustoz- shogird" an'anasi, badiiy kulolchilik, ijodiy ustaxona.

Ключевые слова: традиция "мастер-ученик", художественная керамика, творческая мастерская.

Key words: master - student tradition, artistic ceramics, creative workshop.

Kirish. Pedagogik kadrlarning yuksak professionalizmi ko'p jihatdan Oliy ta'lim muassasalarida shakllantirilgan salohiyat, uning ta'limiy ehtiyojlarini qondirish va kasbiy tayyorgarlik darajasiga bo'lganligi. Shu nuqtai nazardan butun ta'lim tizimimizni tubdan qayta ko'rib chiqish, professional bilimlarni egallash uchun imkoniyatlarni kengaytirish, yangi sharoitlarda, yangi zamonaviy texnologiyalarda ishlashga qodir mutaxassislarni tayyorlashga yo'nalganlikni kuchaytirish zarurati yuzaga keldi.

Badiiy kulolchilik va amaliy san'at o'qituvchisining kasbiy faoliyati, agar uning shaxsiy tajribasidagi pedagogik qobiliyati qalamtasvir, rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, dizayn, badiiy hunarmandchilik amaliyoti bilan bog'liq bo'lsa, talabalarga ham an'anaviy, ham zamonaviy mashg'ulotlar davomida mahorat dasrlarida badiiy tasvir turli xil usullarda va materiallarda ko'rsatib berish orqali tasviriy san'at mashg'ulotlarini tashkillanishi samarali bo'lishi mumkin. Badiiy kulolchilik va amaliy san'at fanlarini talabalar tomonidan o'zlashtirishdagi muvaffaqiyat nafaqat tasviriy san'at o'qituvchisining idrok etish, tasavvur qilish, obrazli fikrlash, voqelikni turli hodisalarini idrok etish va ularni baholash qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadigan nafaqat professional, balki shaxsiy rivojlanish darajasini ham belgilaydi. Estetik nuqtai nazar, go'zallikni nafaqat san'atda, balki kundalik hayotda, odamlar o'rtasidagi munosabatlarda ko'rishdir.



Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni (shu jumladan, bo'lajak o'qituvchilarni) turli xil tasviriy san'at turlariga o'rgatishning metodik jihatlariga bag'ishlangan tadqiqotlarni S.V. Anchukov, R.Arnxaym, F.F. Banduristi, T.V.Bezgodova, M.A.Boenko, A.A.Vasilev, M.A.Verb, O.V.Saldaeva, Du.Yanyan, Li Yaping, Pan Yaochang, T.V.Chelysheva, Chen Ruilin, M.A.Derbisova, V.P.Zinchenko, T.M. Kojagulov, G.Yu. Korobko, A.I.Lobanov, B.E.Ospanov, O.I.Radomskaya, R.N.Sayxulov va boshqalar olib borgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi malakatlarida badiiy ta'lim tizimida asoslangan estetik ta'lim-tarbiya masalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar Masalan: Rossiya davlati badiiy ta'limi tizimida A.I.Miklasheyevskiy, S.Gozaryan, I.J.Bagaslovskaya, O.S.Popovoy, Ye.M.mojayevalarning. Mamlakatimizda esa A.Rahimov, Sh.Yusupov, I.Komilov, A.Nazirov, A.Nuriddinlarning ishlarida o'z aksini topgan. Ularning barchasi o'z tadqiqotlarini maktab o'quvchilarining estetik didini darsdan tashqari soatlarda rivojlantirish masalasiga qaratishgan. Oliy ta'lim tizimida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash masalalari bo'yicha A.Sulaymanov, B.Boymetov, R.Rajabov, S.Abdirasilaov, N.Talipov. U.Nurtaev, N.Oydinov, K.Gulyamovlar qator tadqiqotlarida ko'rishimiz mumkin. U.Nurtaevning tadqiqotlarida O'zbekiston sharoytida bo'lajak tasviriy san'at, amaliy san'at va badiiy kulolchilik yo'nalishi o'qituvchilarni tizimli tayyorlash masalalari yechimi ishlab chiqilgan, shuningdek, estetik didini tarbiyalash va xalq ijodiyoti dasturlarini, urf-odatlarini tasviriy va amaliy-dekorativ san'ati vositalari ko'magida o'rganish usullari alohida ko'rsatilib o'tilgan. Ushbu tahlil quyidagi xulosalarni keltirib chiqaradi: Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari masalasi yetarli darajada o'rganilmagan; tasviriy san'at, amaliy san'at va badiiy kulolchilik fanlarni o'qitish jarayonida tasviriy san'at, amaliy san'at va badiiy kulolchilik, rangtasvir, qalamtasvir, haykaltaroshlik san'at turlarini o'rganish masalasi yetarli darajada ochib berilmagan; bo'lajak tasviriy va amaliy san'at yo'nalishi talabalarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir.

Natijalar va muhokama. Yurtimizda faol, intiluvchan, iqtidorli va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, zamonaviy bilim hamda kasblarni chuqur egallagan – bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo'lgan yoshlarni voyaga yetkazish uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Bugungi kunda fan va texnika rivoji ta'lim va uning natijalariga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirishni talab etmoqda. Shunga asosan, yangi avlod standartlarini yaratish pedagoglarning oldiga muhim vazifa qilib qo'yilmoqda.

Hozirgi vaqtgacha yaratilgan davlat ta'lim standartlari tizimli-faoliyatli yondashuvga asoslangan, ya'ni ta'lim maskanlarining maqsadini bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish tarzida aniqlashtirishdan iborat edi. Shu bois yangi davlat ta'lim standartlarini o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan kompetent-faoliyatli yondashuvga asoslanishdan kelib chiqqan holda belgilash talab etilmoqda. Chunki oliy ta'limda tashkil etilayotgan o'quv-tarbiya jarayonining mohiyati talabalarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini, ijodiy faoliyatini rivojlantirishga oid bilimlarni, ko'nikma va malakalami shakllantirishdan iborat bo'lib qolmoqda.

Yuqoridagi dolzarb muammolarni bartaraf etish maqsadida, ta'lim jarayonlarini turli yangicha yondashuvlar asosida tashkil qilish maqsadga muvofiq sanaladi. Muxtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"[1:13-14], degan fikrlari ham mustaqil O'zbekistonimiz yoshlarini erkin fikrlashni tarkib toptirishga qaratilayotgani ham e'tibordan holi emas. Shunday ekan biz o'qituvchilar hozirgi yangi davr talabi asosida darslarni tashkil etishdazamonaviy yondashuvlar asosida tashkil qilishimiz oldimizdagi yuksak vazifalardan biridir.

Ushbu muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo'li – oliy ta'limda yangicha, ya'ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Kompetent yondashuv talabadan bilim va ko'nikmalarni, alohida-alohida emas, balki yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda, o'z navbatida, o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. O'qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi.

Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonini, xususan, amaliy san'at va badiiy kulolchilik o'quv jarayonini modernizatsiyalash, pedagog bo'ladigan mutaxassislar tayorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi.

Ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, global dunyoda raqobatning ortishi sharoitida har bir davlat va jamiyatning bu jarayonda raqobatbardoshligi yoshlarning intellektual rivoji hamda ularning iste'dodi va qobiliyatlarini to'liq



amalga oshirishga e'tibor berishga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun bu masala har doim davlatlarning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan barcha strategiyalarda aks ettirilgan.

O'zbekiston Prezidentining davlatning rivojlanish istiqbollari haqidagi 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida quyidagi vazifalar berildi[2].

- Atoqli O'zbekiston xalq rassomlari va amaliy san'ati ustalarining namunali hayoti va ijodini keng targ'ib qilish hamda ular xotirasini abadiylashtirish.

- O'zbekiston tasviriy va amaliy san'atini xalqaro darajada ommalashtirish.

- Tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlarida yetuk mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish[4].

Bunda badiiy ta'lim bosqichlarining o'zaro mazmunan bog'liqligi, uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash; oliy ta'limda tasviriy san'at o'quv jarayonini tashkil etishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, bu borada o'quv uslubiy majmualar sifatini ta'minlash, pedagogik texnologiyalarni joriy etishda professor-o'qituvchilarning kompyuter va Internetdan foydalanish bo'yicha savodxonligini doimiy oshirib borish; oliy ta'limning axborot resurs va zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minotini yanada rivojlantirish; tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishlarida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish oliy ta'lim muassasalarida rassom-pedagoglarining faoliyat yo'nalishlari tarkibini belgilaydi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki oliy ta'lim tizimini xususan, tasviriy san'at ta'lim tizimini modernizatsiyalash (ingl. modern — yangilangan, zamonaviy, tekor o'sish) o'quv jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab etadi. Pedagogik jarayonda to'plangan tajribalar asosida ko'plab usul va texnologiyalarni qo'llashga to'g'ri keladi, ushbu metodlardan biri ijodiy to'garak ustaxonasida ustoz shogird an'anasi asosida ishlash mustaqil ta'lim, ijodiy to'garak va mashg'ulotlarida foydalanish va ijodiy ustaxonasi tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Biz tadqiqotlar ishlarini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida kulolchilik amaliy san'ati bo'yicha ijodiy ustaxona tashkil etdik. Bu ustaxonada talabalarning amaliy mashg'ulotlari o'tirilishi ta'minlandi. Ijodiy ustaxonada ustoz bilan birgalikda ishlash mashg'ulotlari talabalar ijodiy fikrlashlari va faoliyatlarining rivojlanishlari uchun samarali imkoniyatlar yaratadi. Ijodiy ustaxona pedagog uchun talabalardagi kulolchilik amaliy san'ati bo'yicha tabiiy qobiliyatlarni amalga oshirish va uni har xil ijodiy faoliyatlarda qo'llashga yordam beradigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni cheksiz qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Bu texnologiyalarga – shaxsiyatga mo'ljallangan; talabaga har tomonlama xurmat va muhabbat bilan yondashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash asosiga qurilgan – yakkama-yakka ta'lim texnologiyasi; talabalar bilan birga maqsadni belgilab olish, ular bilan birga ijod qilish, ularga do'st sifatida qarash, ularning qiziqishlariga, ijobiy hissiyotlarining hamohangligini yaratishga qaratilgan – pedagogik hamkorlik texnologiyasini; ijodkorlik imkoniyatlarning rivojlanishi darajasidagi – tabaqalashtirilgan ta'lim; muammoli holatlarni yaratish va talabalar uning yechimini mustaqil ravishda topishlarini faollashtirishga qaratilgan – muammoli ta'lim; talabaning shaxsiyatini tarbiyalash, uning ilmiy tadqiqot, ijodiy faoliyati qobiliyatlari imkoniyatini loyihalashtirish usuli bo'yicha xususiy texnologiyani qo'llash kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni misol qilish mumkin.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodiga asoslangan usul; quyidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishni talab qiladi;

- talabaning ta'lim jarayonida va hayotiy faoliyatida olgan bilim, ko'nikma va mahoratlarini takomillashtirish;

- mustaqil ijodiy izlanish ko'nikmalarini rivojlantirish;

- tasviriy san'atning barcha tur va janrlariga qiziqishlarini oshirish, har xil materiallar texnikalarni o'zlashtirish xohishlarini rivojlantirish;

- olgan bilimlarini amalda kundalik hayotda qo'llash, shaxsiyatini va atrof borliq haqidagi fikrlarini tubdan o'zgartirish;

- inson hayoti tabiat, san'at, kundalik turmush bilan uyg'unligini idrok etish haqidagi ma'naviy savodxonligini oshirish;

- milliy qadriyatlarni va urf odatlarni sevishtirish, hurmat qilish hissini tarbiyalash;

- jamiyatdagi o'z o'rnini topishda, o'z ijodiy mehnat mahsullarining jamiyatga nechog'lik kerakligini his qilish, o'tmishdagi ajdodlarimiz me'rosiga hurmat nazari bilan qarash va kelajakka ishonch ruhida tarbiyalash; Ijodiy ustaxonada nimani amalga oshirish kerakligini asosan shogirdning o'zi tanlaydi, ustoz faqat uning ishidagi xatolarini tuzatib, qanday tasvirlash vositalaridan foydalanish mumkinligi haqida maslahatlar beradi[6].

Ustoz va shogirdning birgalikdagi harakati asosida ijodiy faoliyat yaratiladi. Shogird tasviriy san'atning qaysi turi yoki janrida ishini boshlashni xohlasa, ustoz yordamida o'zining faoliyatini rejalashtiradi: eskizlar bajaradi, ishlash uchun material tanlaydi, ish joyini tayyorlaydi keyin o'ylagan rejasini amalga oshirishga kirishadi. Ijodiy ustaxonadagi har bir shogird – bu o'z asarini tomoshabinlar hukmiga qo'yishga tayyorlanayotgan rassom. Ustaxonada ijodiy usulida bajarilgan har bir ish, o'z holicha bir loyiha, tugallangan buyum bu konkurs, olimpiada yoki ko'rgazmaga qo'yiladigan tayyor mahsulotdir.



Ijodiy ustaxonada ishlashni rejalashtirish to‘garakdagi, asosiy e‘tibor har bir talabaning hohishi va qiziqishlari asosida har bir talaba shaxsiy xususiyatini hisobga olib tuziladi. Ammo pedagog nafaqat talabaning shu paytgacha o‘zlashtirgan bilimlari, ko‘nikma va malakalarini hisobga olishi, balki o‘shish nuqtasini ham belgilab borishi, kelgusidagi kamolotga erishish imkoniyatlari, ularning yangi tajribalarni egallashlarida yordamlashishi, yangi texnologiyalar va texnikalar bilan tanishtirib borishlari kerak bo‘ladi[7:275].

Ijodiy ustaxonada mashg‘ulotda qatnashayotgan talabalarning o‘zi ham doimo yangi texnologiyalarni izlashadi, yangi tajribani o‘zlashtirishga, atrofdagilar bilan o‘rtoqlashishga harakat qilishadi. Mashg‘ulotlar jarayonida ijodiy ustaxona usulidagi ishlash metodikasining psixologik jihatlariga e‘tibor berish juda muhim. Sir emaski tasviriy san‘at bilan endi shug‘ullanishni boshlagan talabalar o‘ziga ishonmaslik, o‘z ishini past baholash, men yaxshi chiza olmayman, chiroyli chiqara olmasamchi?, hech kimga yoqmasachi?, men umuman hech narsani eplay olmaymanl kabi cho‘chish hissi yuqori bo‘ladi.

Kulolchilik ijodiy ustaxonada kulolchilik amaliy san‘ati bo‘yicha quyidagi bilimlarga ega bo‘ladilar: Har bir hunarni o‘ziga xos mashaqqatli va o‘ziga xos sir-asrorlari bo‘ladi. Qadimdan ota-bobolarimiz badiiy kulolchilik sirlarini va tajribalarini faqat o‘z shogirdlariga o‘rgatib kelganlar. Ota-bobolarimiz asrlar mobaynida kulolchilik sir-asrorlarini o‘rganib har bir mahsulotni ayniqsa sifatiga, badiiyligicha, foydalanish qulayligiga va uning umrboqiyiligiga alohida e‘tibor berib kelganlar.

Shuning uchun ular tayyorlagan oddiy sopol piyolasidan tortib sharq me‘morchiligini bezab turgan koshinlarning umrboqiyiligi dunyo ahlini lol qoldirmoqda. Ha, bunga erishish uchun ota-bobolarimiz yuqori sifatli g‘oyat chidamli hamda davr sinovlaridan o‘tgan materiallardan keng foydalanib kelganlar.

O‘tmishda tuproqdan, qorachiroq, shamdon, sarxona, jomashov, xum hamda ovqat pishiriladigan sopol idishlar tayyorlangan. Hozir tovoq, guldon, lagan, piyola, tandir va boshqalar ko‘p ishlab chiqarilmoqda. Kulolchilikda asosiy xom ashyo tuproqdir. Tuproqlarning sog‘ tuproq, qora tuproq, ko‘kimtir, qizil loykor turlari bo‘ladi. Kulolchilikda ishlatiladigan loy o‘zining xususiyati va ishlatiladigan buyumiga qarab bir necha gruppalariga bo‘linadi.

Loyi guldon – sershiralı loy, bu loydan juda nozik guldonlar yasaladi. U elastik xususiyatga ega bo‘lib, jusha loyi qo‘shilgan bo‘ladi.

Chinni loy yoki oq loy – yarim foyans bo‘lib, qoramtir loy oqtosh va ishqor qo‘shilib tayyorlanadi. Bu loydan kosa, piyola, lagan boshqalar tayyorlanadi.

Kesma koshin loy – o'tga chidamli qoramtir loydan, ya'ni gilvataga oq tosh yoki oq qum qo'shib tayyorlanadi. Undan har xil mozaikali koshinlar tayyorlanadi. Koshin loy – shirachli loyga kvars qumi qo'shib undan har xil koshinlar tayyorlanadi.

Kosagar loy – patloy yoki tovoq loy deb ham yuritiladi. Bu loy sog' tuproqqa qamish qozg'og'ini aralashtirib tayyorlanadi. Undan yassi yuzali idishlar tayyorlanadi.

Ko'zagar loy – 60-70% plastik yog'li loy va 30-40% sog' tuproqdan iborat bo'ladi. Undan xum, guldon, ko'za va boshqalar tayyorlanadi. Kulolchilikda shamol, ilvata, bo'yoqlar, angob, charx, mo'yqalam, mola, katta mola, kichkina mola, sim, naqshin qolip, labgir, lagan qolip, pargor qalam, kojokord, taroq, tagi qalam, g'ujmak, tuppa va boshqalar ishlatiladi.

Kulolchilikda loyni ustalar har xil texnologiyada tayyorlaydilar. Maxsus tuproqdan loy qilinib uni tepib, mushtlab pishiriladi. Loyni nam matoga loy tayyorlaydigan xona bo'lib uyni ichki qismidan hovuzga o'xshash uncha chuqur bo'lmagan joy bo'lgan. Bu hovuz pishiq g'ishtdan to'shaladi. Loyni har kuni, ya'ni 20 kungacha suv sepib pishiriladi va nam sholchani ustiga yopib qo'yilgan.

Kerakligicha loyni tepib, mushtlab pishiriladi. Loyni yulib olib stol ustiga urib-urib pishiriladi, shunda loy ichida to'planib qolgan havo yo'qotiladi. Agar loyda havo qolib ketsa, idishni pechkada pishirganda o'sha bo'shliq yana kattalashib idish teshik bo'lib qolishi mumkin. SHuning uchun qancha ko'p loyni pishitilsa shuncha sifatli mahsulot olinadi. Kulolchilik charxida idishlar tayyorlanadi.

Charx asosiy qurol bo'lib, u katta va kichik yog'och g'ildirakdan iborat bo'ladi. Yog'och o'q bilan birlashtiriladi Kulol charxining pastdagi katta g'ildiragini oyog' bilan aylantirib turadi. Yuqoridagi g'ildirakka loy quyib undan idish tayyorlaydi. Tayyorlangan idishlar yaxshilab quritiladi, chunki yaxshilab quritilgan keyin pechda yorilib ketishi mumkin. U quritilgan idishlarni xumda qizdiriladi. Sirlanadigan idishlar sirlanadi yana xumda qizdiriladi. Qadimdan kulollar ma'lum idish yoki buyum bo'yicha ixtisoslashgan bo'ladi.

Masalan, kosagar, tandirchi, ko'zagar va boshqalar deb yuritiladi. Xorazm badiiy kulol ustalari qadimda o'ziga xos texnologiyaga ega bo'lganlar. Ular koshin, bodiya xum va boshqa kulolchilik mahsulotlari ustiga beriladigan sirni tayyorlash uchun yozning jazirama issiq oylarida ko'hna Urganch tomonlaridagi qum etaklariga chiqib haftalab chog'on o'simligini to'plab uni yoqib, kulini olib kelganlar. Hozir bu o't juda kamayib ketgan. Bu o'simlikdan tashqari qora o'roqdan qam foydalangan. Sentyabr oylarida qora o'roq ayni shirachga to'lgan vaqtida faqat yashil patini yoqib kulidan ishqor tayyorlaganlar.



aniq maqsad qo'yilsa, ularning ijodiy ishi natijasini ko'rsatish imkoniyati yaratilsa, talabalardagi ijod qilish, yaratishga bo'lgan qiziqishi ortadi. Ijodiy ustaxona sharoitida birga ishlash barobarida ustozga nisbatan mehr va hurmat tuyg'ularini oshganligi yaqqol seziladi[3:63].

Demak, mutaxassislar tayyorlashda "Ustoz-shogird odobi" an'analaridan ta'lim-tarbiya jarayonida takomillashtirish va rivojlantirishda pedagoglar o'rni va ahamiyati katta. Shuningdek, Yosh avlod vakillari o'tmishda yaratilgan merosni, asarlarni ko'rib, ardoqlab, idrok qilib o'zlashtirsalar, zamonaga munosib mutaxassislar bo'lib yetishishlari mumkin.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev.Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq.T."O'zbekiston" NMIU. 2016 y.13-14 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son).
3. Байметов, Б.Б., Собиров, С.Т., & Исмаатов, У.Ш. Проблемы профессионально-педагогической подготовки учителей изобразительного искусства. Вестник науки, 1(7), 2019. – С. 63-66.
4. Ne'mat A.M., & Ankabaev R.T. Methodological Principles of Training Fine Arts. Eastern European Scientific Journal, №6, 2018.
5. Ирбутаева М.Т., Махмудов М.Ж. & Махмудов М.Э. живопись и гармония музыки. Ученый XXI века, 6-1(65), 2020. – С. 31-34.
6. Karimova M.O., & Saidullaeva A.R. Pedagogical basis of the use of universal and national values in the spiritual and moral education of children in the family. PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/ Egyptology, 17(7), 2020. – P. 8547-8555.
7. Каримова М. Моделирование процесса профессиональной подготовки специалиста. Общество и инновации, 2(8/S), 2021. – С. 274-282.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada badiiy kulolchilik va amaliy san'at o'qituvchisining kasbiy faoliyati, "Ustoz-shogird" an'anasi, badiiy kulolchilik amaliy san'ati bo'yicha ijodiy ustaxona tashkil etish, mustaqil ta'lim, ijodiy to'garak mashg'ulotlari, talabalar bilimlari, ko'nikma va malakalari o'rin olgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлена профессиональная деятельность учителя художественной керамики и прикладного искусства, традиция "мастер - ученик", организация творческой мастерской по прикладному искусству художественной керамики, самостоятельное обучение, занятия творческих кружков, знания, умения и навыки учащихся.

SUMMARY

This article presents the professional activity of a teacher of artistic ceramics and applied art, the tradition of "master – student", the organization of a creative workshop on the applied art of artistic ceramics, independent training, classes of creative circles, knowledge, skills and skills of students.